

“FARG’ONA VDOYSIDGI QISHLOQLARNING XX ASR 60-80-YILLARDAGI INFRATUZILMASIDAGI O’ZGARISHLAR “

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası 2-bosqich magistranti
Raimjonov Ziyoxiddin*

Annotatsiya; Farg’ona vodiysi qishloqlarida maishiy xizmat - aholiga savdo va ovqatlanish xizmati ko’rsatilishi maktablar bog’chalardagi bufetlar ovqatlanish joylari oshxona va choyxonalar shuningdek kitob savdosi , televizor va radioning qishloqlarga kirib kelishi umuman olganda 1960-1980-yillar aholi ehtiyoji uchun zarur bo’lgan mahsulot va jarayonlar haqida so’z ketadi

Kalit so’zlar; maishiy xizmat , infratuzilma , savdo , kolxoz, sovxoz, kommunal, qishloq ,mahsulot ,

1960–1970-yillarda O‘zbekiston qishloq hududlarida savdo xizmatlarining rivojlanishi kolxoz va sovxozlarda qurilgan savdo do‘konlari va savdo muassasalarining soniga bevosita bog‘liq edi. 1960- yillarda qishloqlarda savdo do‘konlari qurish uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmagan, shu bois, qishloq joylarda savdo do‘konlari soni ehtiyoj darajasida bo‘lmagan. Yana bir tomoni, do‘konlar qurishda qishloqlarda aholi punktlarining sharoitlari, aholining xarid darajasi va boshqa faktorlar hisobga olinmagan. Shu sabab aksariyat do‘konlar aholi ko‘p bo‘lgan, ularga talab yuqori joylarda qurilmay, balki keraksiz joylarda qurilgan. 1965-1970 yillar oralig‘ida qishloq aholisiga jami 7 milliard 420 million so‘mlik mahsulotlar sotilgan. Agar buni boshqa raqamlarda ko‘rsatadigan bo‘lsak, 1970 yilda qishloq hududlarida savdo aylanmasi 1965 yilga qaraganda 45 foizga oshgan. Umuman, bu yillarda respublika qishloq aholisining iste‘mol xaridi shaharlardagidan orqada qolayotgan edi. 1975 yilda chakana savdo aylanmasi shaharlarda aholi jon boshiga 800 so‘mni, qishloqda esa 364 so‘mni tashkil qilgan. Xususan, oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha shunga muvofiq 386 va 157 so‘mni, undan boshqa tovarlar bo‘yicha esa 414 va 189 so‘mni tashkil qildi. Yana bir jihatni e‘tiborga olish kerakki, mazkur davrda qishloq aholisi tovarlarning aksariyat qismini shaharlardagi do‘konlardan xarid qilgan. Masalan, qishloq aholisi sanoat, maishiy texnika, kiyim-kechak kabi mollarni shahar do‘konlaridan xarid qilgan va bu yalpi xarid qilingan tovarlarning taxminan 38 foizini tashkil qilgan. Qishloq aholisi oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojning katta qismini shaxsiy yordamchi xo‘jaligi hisobiga qondirgan. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, vaqti-vaqti bilan qishloq aholisi sotib olayotgan mahsulotlar turi o‘zgarib turgan. Jumladan, 1950 - yillarda aholi, asosan, kundalik turmushda kerak bo‘ladigan tuz, xo‘jalik sovuni, gugurt, kerosin kabi mahsulotlarni ko‘proq sotib olgan bo‘lsa, 1960- yillarning oxirida

mebel, muzlatkich, televizor, tikuv mashinasi kabi mollarga talab oshgan. Masalan, 1957 yilda qishloqlarda jami 5 mingta muzlatkich sotilgan bo'lsa, 1969 yilda qishloq aholisi 60 mingta muzlatkich xarid qilgan. Bu kabi o'sish kir yuvish mashinalari xaridida ham kuzatilgan. Jumladan, 1957 yilda qishloq aholisi jami 9 ming dona kir yuvish mashinasi sotib olgan bo'lsa, 1960-yillar oxirida ular tomonidan xarid qilingan kir yuvish mashinalari soni 45 ming donaga yetdi. Bundan tashqari, 1965-1970 yillarda qishloq hududlarida velosiped sotuvi 8 marta, mototsikl 6 marta, radio va televizorlar sotuvi 10 martaga oshgan. Shuningdek, qishloq aholisining asosiy xaridlari qatorida go'sht, kolbasa, sut mahsulotlari, hayvon yog'i, shakar va qandolat mahsulotlarining o'rni yuqoriligicha qolgan. So'rovnoma asosida respondentlardan "Uyingizda televizor va boshqa maishiy texnika vositalari (televizor, radiopriyomnik, muzlatkich) qachon paydo bo'lgan?" degan savolga quyidagi javob olingan. Bunda so'rovnoma o'tkazilgan 15 ta qishloqda televizor ilk bor qachon kirib kelgan, degan savol ham berilgan bo'lib, bu so'rovga respondentlarning 90 foizdan ortig'i "1965-1968 yillarda" deb javob bergan. Ya'ni, 1960-yillarning oxirlarida ham qishloqdagi 2-3 ta xonadonda televizor bo'lgan, xolos. Radio 1965-1970 yillarda qishloq aholisining 85 foizida bo'lganligi haqida ma'lumot olindi. Muzlatkich ham qishloq aholisi xonadonlariga, asosan, 1980 yillardan kirib kelgan va u 18 foiz aholining uyida bo'lgan, xolos. Farg'ona vodiysi qishloqlarining 80 foizdan ortiq xonadonlarida (tadqiqot olib borilgan 15 ta qishloq bo'yicha olganda) 1980-yillar oxirida ham muzlatkich bo'lmagan. 1960–1980-yillarda qishloq aholisiga bozorlar, do'konlar va umumiy ovqatlanish muassasalari xizmat ko'rsatgan. 1960 yilda O'zbekistonning 140 ta sovxozida 237 ta oshxona, 330 ta bufet va choyxonalar faoliyat yuritgan. Sovxozlarda umumiy ovqatlanish muassasalari savdo aylanmasi 1959 yilda 1957 yilga nisbatan 2 barobarga ko'paygan. 1970-1980 yillar oralig'ida esa qishloq joylarda umumiy ovqatlanish muassasalarining savdo aylanmasi olti baravarga o'sgan. Oshxonalarda ovqatlanuvchi ishchi va xizmatchilar soni oshib borgan. Dala shiyponlarida dala ishlari qizg'in paytda issiq ovqat tashkil qilingan. Qishloq maktablarida oshxona va bufetlar faoliyati ham ko'ngildagidek yo'lga qo'yilmagan edi. Masalan, Andijon viloyatida 1960 yilda 382 ta maktablarda bufetlar bo'lmagan. Shuningdek, davolash muassasalari, bog'chalar, maktab-internatlari oziq-ovqat bilan yetarli darajada va o'z vaqtida ta'minlanmagan. Andijon viloyatida 1964 yilning 9 oyida bolalar kiyimlari va poyabzali savdosi bo'yicha birorta ham do'kon ochilmagan, vaholanki, viloyatda bunday 4 ta magazin ochish rejalashtirilgan edi. 29 ta o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi magazinlar ochish rejalashtirilgan bo'lsa-da, atigi 8 ta magazin ochilgan. 1980-yillar boshida qishloq magazinlarida 1 kg buxanka non 25 tiyin, 0,5 kg birinchi sort undan tayyorlangan baton 13 tiyin, 0,4 kg birinchi sort undan tayyorlangan obinon 11 tiyin, ikkinchi sort undan tayyorlangan 1 kg buxanka 16 tiyin, birinchi sort undan tayyorlangan 0,4 kg patir 18 tiyin, birinchi sort undan tayyorlangan 0,2 kg obi non 6 tiyin, 0,3 kg og'irlikdagi obinon

9 tiyin bo‘lgan. Shuni aytish kerakki, bu yillarda non va non mahsulotlari arzon bo‘lgan. O‘zbekbirlashuv” yalpi mahsulotlari aylanmasida non yopish sanoati katta hajmi tashkil etib, 1985 yilda 226 ta non yopish korxonalari va sutkasiga 2878 tonna quvvatga ega 2791 ta tandirdan iborat bo‘lgan. Bu yillarda non mahsulotlari assortimenti ham yaxshilandi. 1985 yilda 70 xil non mahsulotlari tayyorlanib, umumiy tayyorlangan non mahsulotlari ichida milliy non mahsulotlari 48,1 foizni tashkil etgan. Umuman olganda, O‘zbekiston qishloq aholisiga savdo xizmati ko‘rsatish yuqori darajada emas edi. Ko‘pgina aholi punktlarida 1985 yilgacha ham savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish muassasalari bo‘lmagan. 3000dan ortiq qishloq aholi punktlari savdo korxonalariga ega bo‘lmagan. 8375 qishloq aholi punktlari ovqatlanish muassasalariga ega bo‘lmagan. 77 ming aholiga ega bo‘lgan 152 ta qishloq aholisi yashash joyidan 10 kmdan va undan ortiq masofada joylashgan oziq-ovqat magaziniga borishga majbur bo‘lgan. Qishloq aholisi turmush darajasidagi o‘shishni ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri aholi jon boshiga o‘rtacha tovar aylanmasi bo‘lib, bu ko‘rsatkich 1975 yilda 319 so‘mni, 1980 yilda 405 so‘mni, 1985 yilda esa 447 so‘mni tashkil etib, 10 yil ichida 40,1 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkich shaharlarda 35,7 foizga oshgan. Muhim bir xususiyat – qishloqlarda kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchi magazinlar ham bo‘lgan. Gazeta va jurnallarni chakana tarqatish salmog‘i 1962-1964 yillarda oshgan bo‘lsa-da, uning qiymati juda kam edi. Bu avvalo, gazeta-jurnallar narxining arzonlashishi bilan bog‘liq edi. 1965 yilning 1 kvartalida Andijon viloyatida gazeta-jurnallar savdosining oshishi 16,1 foizni tashkil etgan. Respublikada bu ko‘rsatkich 22 foizni, SSSRda esa 29,6 foizni tashkil etgan. 1985- yilda nashriyot mahsulotlari 402 ta kitob magazini, 184 ta matbuot kiosklari, 1649 ta univermag va magazinlarning madaniy tovarlar bo‘limlari orqali sotilgan. Bundan tashqari, kitob savdosi 337 nafar doimiy kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchi kishilar, 1700 nafar jamoat tarqatuvchilari, 80 ta kitob avtomagazinlari, 407 ta “yosh kitobsevarlar” maktab kooperativlari orqali olib borilgan. Faqat 1985 yilda kolxoz va sovxoz dala shiyponlarida 35 mingdan ortiq kichik kutubxonalar tashkil etilgan va kitoblar sotilgan.

Xulosa qilib aytganda, 1960–1980-yillar orasida qishloq hududlarida aholiga xizmat ko‘rsatuvchi bozorlar, do‘konlar, choyxonalar, bufet va umumiy ovqatlanish muassasalari tizimi rivojlandi. Qishloq aholisiga savdo xizmati ko‘rsatilishi barcha joylarda ham sifatli va talab darajasida tashkil etilmagan, ayrim rayon qishloqlarida bu boradagi muammolar 1980-yillar oxirigacha saqlanib keldi. Umumiy ovqatlanish tizimi haqida bir jihatga e’tibor berish lozimki, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kolxoz va sovxozlar hududida dala mehnatkashlariga xizmat ko‘rsatuvchi ko‘chma do‘konlar, dala shiyponlarida dehqonlar uchun issiq ovqatlar tayyorlash xizmati ko‘rib o‘tilgan yillarda samarali faoliyat olib bordi. Lekin kolxoz, sovxozlar maktablarida tashkil etilgan oshxonalar, bufetlar faoliyati umumiy holda qoniqarsiz bo‘lgan. Bolalar

bog‘chalari va maktablarida tashkil etilgan oshxonalar va bufetlar xizmati aksariyati sifatsiz bo‘lgan, ular yetarlicha mahsulotlar bilan ta‘minlanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov R “Qishloq savdosining muhim muammolari” O‘zbekiston kommunisti-Toshkent 1967.
2. O‘zbekiston tarixi (1917-1991) Ikkinchi kitob (1939-1991)- Toshkent O‘zbekiston 2019
3. Gastranom – sovuq va yengil taomlar va alohida usulda tayyorlangan oziq -ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi magazin
4. aratova M. Karimova T. Muxitdinov F. “Turmush darajasining yaqinlashuvi” “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” Toshkent -1977
5. Abdurashidov B.” Maishiy xizmat va uning istiqboli “– Toshkent 1980
6. Tajimirzayev E.” XX asr 60-80- yillarida Farg‘ona vodiysi qishloqlari aholisining kundalik hayoti”
7. O‘zbekiston milliy arxivi P-2454-fond 6-ro‘yhat